

## BOSHLANG'ICH SINIF ÒQUVCHILARI SAVODXONLIGIDA INNOVATSION YANGILIKLAR

**Mo'sinjonova Zeboxon Oybek qizi**

Andijon davlat universiteti Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim va tillarni o'qitish metodikasi fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 104-guruh talabasi

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasida yoshlarga imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu jumladan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bolani yoshlik vaqtidan to'g'ri ta'lim – tarbiyaga yo'naltirib, jamiyatimiz uchun kerakli shaxs, kerakli kadr qilib tayyorlash eng muhim vazifalardan biridir. Ta'lim sohasiga kiritilgan o'zgartirishlar va yangiliklardan biri o'quvchilar uchun yangi darslik shakllanganidir. Ushbu Ona tili va o'qitish savodxonligi darsligini fanga kiritilishi sabablarini va o'quvchilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi, foydali tomonlari haqida so'z yuritdim.

**Kalit so'zlar:** bilim salohiyatini oshirish, nutq texnikasi, badiiy uslub, matnlar, ilmiy – ommabop, qiziqarli, tovushlar imlosi, sarlavha, ijodiy ish, kutubxonalar, audiolarga, fonetik o'zgarishlar, murakkabroq, mukammal.

Hozirgi globallashuv davrida kundan – kunga ta'lim sohasiga yangiliklar kiritilmoqda. Jamiyatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodlarning bilim salohiyatini oshirish va, albatta, fikrlash qobiliyatini o'stirishga e'tibor kuchaymoqda. Bunda esa biz uchun kerakli bo'lgan har bir darsliklar muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Eng avvalo boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish hamda nutq texnikasini rivojlantirish uchun yangi, zamonaviy darsliklar fan sifatida kiritilmoqda. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsam, avvallari ona tili va o'qish darsligi alohida o'qitilar edi. Hozirgi kunda esa ikkala darslik birlashtirilib Ona tili va o'qitish savodxonligi fani sifatida fanlar qatoriga kiritildi. Avval o'qish fani, asosan, badiiy uslubda yozilgan bo'lsa, hozirgi darslikda she'rilar va matnlar ustida savol va topshiriqlar shaklida berilgan. Ular ustida mustaqil fikrlashni oshirish ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan tashkil topgan. Bundan tashqari darslikka kiritilgan yangiliklardan biri shu bo'ldiki, avvalgi darslikda berilmagan bo'lsa, hozirgi darslikda har mavzuga topshiriqlar ustida ishlash bilan birgalikda tinglab tushunish ham yangilik sifatida kiritildi.

Avvalgi ona tili darsligida tilning grammatikasini o'rgatish, qonun - qoidalarni yodlash bo'lsa, hozirgi darslikda rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga urgu' qaratilgan. Eski darsliklarda bolalarga tushunarsiz bo'lgan so'zlarga izoh berilmagan bo'lsa, yangi darslikda o'quvchining tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikni orqasida maxsus lug'atga joylashtirilgan va bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar berilgan. Misol uchun, darslikni “ Tabiat ne'matlari” bo'limini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda o'quvchini tabiatga bo'lgan mehrini yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. O'quvchi yon-atrofidagi tabiat bilan yanada yaqinroq tanishadi. Tabiat hodisalarini chuqurroq tushunadi va yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. Bu bo'limda asosan “ Suvning vatani” matni ustida ko'proq topshiriqlar berilgan. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi matnni bir marta o'qiganda chuqurroq anglay olmaydi. Matnni takror o'qib uning ustida topshiriqlar bajarsa o'quvchini yodida qoladi va erkin fikrlash darajasi o'sadi. Bu mavzuni darslikni bobiga kiritilish sabablaridan biri o'quvchini tabiat bilan yanada yaqin tanishtirish. Bu bobda faqat o'qish bilan birgalikda so'zlarni imlosi, ya'ni “h” va “x” tovushlar imlosi ustida ham topshiriqlar berilgan. O'quvchi bo'lim bilan tanishib borish jarayonida rasmlarga qarab o'z fikrini bayon qilishni va yonidagi do'stlari bilan fikr almashishni o'rganadi. Bu bo'limda tabiatga keltiradigan zararlari haqida rasmlar berilgan va o'quvchi rasmlarga qarab chiqindilarni to'g'ri kelgan joyga emas, balki maxsus idishlarga tashlash kerakligini va to'g'ri kelgan joyga chiqindini tashlasa tabiatga qanday zarar keltirishi juda yorqin tasvirlangan. Buni ko'rib o'quvchilarda tabiatni asrash kerakligi va chiqindilarni to'g'ri kelgan joyga tashlamasligini anglab yetish hissi paydo bo'ladi. Kitobga matn, she'rilar, maqollar ustida ishlash bilan birgalikda rasmlar ustida ham ishlashlar kiritilgan. Eski darsliklarda maqol va topishmoqlar tasvirlanmasdan berilgan bo'lsa, yangi darslikni qulay tomonlaridan biri ham har bir topishmoq va maqollarga o'ziga mos tasvirlar berilgan. Bu orqali o'quvchida eslab qolish osonroq bo'ladi va yodida qoladi.

Darslikni foydali tomoni òquvchini dars vaqtida zerikmasligi uchun mavzuga mos rang -barang tasvirlar kiritilgan. Bu esa o'quvchilarning dars jarayoniga qatnashishlarini faolligini kuchaytirishda, diqqatini tortishda va albatta o'z fikrlarini, tasavvurlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari «San'at va madaniyat» bobida o'quvchilar sevib tomosha qiladigan « Zumrad va qimmat», « Bògirsòq», « Egrivoy va tògrivoy » multfilimlarining qahramonlari chiroyli tarzda tasvirlangan. Bu bobda kòproq ertak qahramonlari orqali ishlanadi. Har bir ertakkli matndan sòng mashqlar, savollar va matnlarni tinglashlar orqali bolaning xotirasini ham kuchaytirilmoqda, eshitgan narsalarini rasmlar bilan taqqoslanmoqda. Darslikda ayrim matnlar uchun bolaning òylashini, fikrlashini oshirish maqsadida rasmlarga qarab mos sarlavha qòyish ham mavjud. Kitobda berilayotgan har bir matnlar ustida kòplab shug'ullanilmoqda. Bunda birinchi òquvchilar matnni avval òqib, sòng savollarga javob berib, daftar orqali mashqlar bajarib va mustaqil tarzda ertak tòqishga ya'ni bolani erkin fikrlashga yònaltililmoqda.

Òquvchilarning òzi tòqigan ertagi bilan birgalikda ijodiy ishga ham qiziqtirilmoqda ya'ni ertak uchun kitobcha yasashni òrgatib, bolaning qay darajada kitob yasashga bòlgan qiziqishini bilib olish ham mumkin. Bu bobda bolaning kitobga bòlgan qiziqishni uygòtish maqsadida kutubxonlar, kitoblar va kitob tarixi haqida matnlarga, savollarga, audiolarga ham tòxtalib òtilgan. Darslikning sòngida esa òtilgan bobni mustahkamlash maqsadida yana qiziqarli savollar berilgan. Bularning ichida mehmonga borish odobi matni ham tarbiyaviy ham axloqiy tarzda yozilgan. Endi ona tili fani orqali tahlil qiladigan bòlsak, sòzlarga -ga qòshimchasini qòshgandagi fonetik òzgarishlar, yasama sòzlarning qòshib yozilishiga misollar, talaffuzda ohirgi harf tushib aytiladigon bir bòginli sòzlar ustida mashq, narsa otlariga nima? deb sòroq berilishi va albatta yasama sòzlarning qòshib yozilishiga oid mashqlardan iborat. Ona tili va òqish savodxonligi darsligi oldingi darsliklarga nisbatan mukammal, qiziqarli va ozroq murakkabroq ham deyishimiz mumkin. Sababi berilgan vaqt davomida òquvchilar ham ona tilini ham òqish darsligini tushinib ulgurishlari lozim bòladi. Bolalarga darslikni har tomonlama to'liq va to'g'ri tarzda tushuntirish bu pedagogning vazifasi. Pedagog endilikda dars jarayonida bolalar bilan kòproq shug'ullanish imkoniyatiga ega. Sababi yangi darslikda òquvchilarga berilayotgan uyga vazifalar, mashqlar dars vaqtida alohida mashq daftariga bajariladi.

O'qituvchi òz kasbining ustasi, kòplab bilimlar egasi bòlsa, òz kasbini qadrlasa va albatta bolalarga muhabbat qòysagina u haqiqiy pedagog, sevimli ustoz bòladi desam yanglishmagan bòlaman. Prezidentimiz SH. Mirziyoyev aytganlaridek: “ Òqituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir ”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ròyxati**

1. Ona tili va òqish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimov [ va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
2. Ona tili va òqish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimov [ va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
3. Oblanazarovna, S. N. (2022). Psycholinguistics One of The Modern Branches of Linguistics. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 4, 277-280.
4. Oblanazarovna, S. N. (2022, March). ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHILARNING PARADIGMATIK MUNOSABATLARI. In *E Conference Zone* (pp. 3-8).
5. Oblanazarovna, S. N. (2022). LINGUISTIC VIEWS OF WOMEN'S COMMUNICATION. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(01), 83-88.
6. Jamoldinovna, B. M. (2020). Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. *Интернаука*, 18(147 часть 3), 69.
7. BEKIYEVA, M. (2020). Bekiyeva Malika O'zbek antroponimlari lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti sifatida. *Архив исследований*, 6-6.
8. Bekiyeva, M. J. Q. (2022). Frazеologiya bo'limining mustaqil fan bo 'lib shakllanishi. *Science and Education*, 3(1), 393-399.
9. Bekiyeva, M. J. Q. (2022). FRAZEOLIGIK BIRLIK LAR OBRAZ LILIK VA EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNI YUZAGA KELTIRUVCHI ENG MUHIM VOSITA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 650-655.

10. H.N. Holmirzaev. THE CONCEPT OF “HUMAN POTENTIAL” AND ITS ESSENCE- Scientific

Bulletin of Namangan State University, 2020

11. <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss7/24/>